




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARKAND
DAVLAT UNIVERSITETI





SAMARQAND - TEMURIYLAR SALTANATINING TARIXIY POYTAXTI

Samarqand shahri janubi-sharqi O'zbekistonda Pomir-Oloy tog'lar bilan o'rالgan chiroyli Zarafshon vodiysida joylashgan.

Samarqand ajoyib shahar. Dunyo ko'zgusi, Kungil bog'i, Sharq durdonasi, Yer Yuzi sayqali - faylasuflar va shoirlar uni qanday nomlashlaridan qat'i nazar, uning asl Go'zalligini va boyligini ta'riflashga til ojiz! Uning ulug'vorligini va butun hashamatini faqatgina o'z ko'zingiz bilan ko'rib bahramand bo'lishingiz mumkin.

Buyuk Ipak yo'l ustidagi bu afsonaviy shahar ming yillik tarixi davomida yuksalish va qulashlarni boshidan o'tkazib, ko'plab bosqinlar va istibdodlarga uchraganiga qaramay, yanada gullab-yashnab qayta tiklangan. G'arbg'a Fors yurtiga, Sharqqa - Xitoy va janubga - Hindistonga bo'lgan savdo yo'llari aynan shu yerda to'qnashgan va Buyuk Ipak yo'l chorrahalarini tashkil etoan.



SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETIGA XUSH KELIBSIZ!

Universitetga kirish har bir insonning kelgusi hayoti va taqdirini belgilovchi muhim qadamdir. Shunga ko'ra Sizning kelajakda qaysi soha mutaxassisni bo'lishingizni belgilab beruvchi oliy ta'limga muassasasini aniqlab olishingiz juda muhimdir.

Agar Siz Samarqand Davlat Universitetida oliy ma'lumot olishga qaror qilsangiz, bu shubhasiz, to'g'ri qaror bo'ladi.

Samarqand Davlat Universiteti O'zbekistondagi eng yirik oliy ta'limga muassasalaridan biridir. Universitetda O'rta Osiyoning turli hududlaridan kelgan 12000 ga yaqin talaba tahsil oladi.

Universitet tarkibiga 14 fakultet, tayyorlov bo'limi va til markazi, shuningdek, qator ilmiy va o'quv laboratoriyalari kiradi. 3,5 million kitoblarni o'z ichiga oluvchi Abdurahmon Jomiy nomidagi axborot-resurs markazi O'zbekiston universitetlari tizimida yagonadir.

Sport kompleksi, medisina markazi, kompyuter xonalari, ijodiy markazlari kabilar bilan universitet haqli ravishda faxrlana oladi.

Biz o'z oldiga zamonaviy ilg'or tenologiyalar asosida sifatli ta'limga olishni maqsad qilib qo'ygan yoshlarni SamDU talabalari safida ko'rishdan baxtiyormiz. Doimo yangilikka intiling, tirishqoq bo'ling va qiyinchiliklardan sira cho'chimang. Buning barchasi Sizning layoqatingizni yuzaga chiqarishga va ilm-fanda, jamiyatda o'z o'rningizni topishingizga albatta yordam beradi.



Sizni universitetda kutib qolamiz! Hurmat bilan, SamDU rektori

R.I. Xalmuradov



JAHONNING NUFUZLI UNIVERSITETLARI - TA'LIM, FAN VA MADANIYAT SOHALARIDA SAMDU HAMKORLARI



МОСКОВСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ
имени М.В.ЛОМОНОСОВА



dongguk
UNIVERSITY



Kazan
Federal
UNIVERSITY



UPM
UNIVERSITI PUTRA MALAYSIA
BERILMU BERBAIKTI



Saint Petersburg
State University
www.spbu.ru





SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI BU:

- **Gumanitar, tabiiy va aniq fanlar sohasidagi mutaxassisliklar**
- **O'zbek, rus, tojik va ingliz tillarida ta'limga**
- **Kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'limga turlari**
- **Hamkor OTMlarda qo'shimcha ta'limga**
- **Chet elda malaka oshirish va amaliyat o'tash, talabalar va o'qituvchilar almashinuv dasturlari**
- **Zamonaviy talabalar turar joylari**
- **Mazmunli madaniy va jismoniy sog'lom (sport) xayot**

UNIVERSITET FAKULTETLARI

- Psixologiya-gumanitar fakultet
- Jismoniy madaniyat fakulteti
- Maktabgacha ta'limga fakulteti
- Biologiya fakulteti
- Kimyo fakulteti
- Fizika fakulteti
- Mexanika-matematika fakulteti
- Tarix fakulteti
- Geografiya va ekologiya fakulteti
- Filologiya fakulteti
- Iqtisodiyot va biznes fakulteti
- Rus filologiyasi fakulteti
- Pedagogika fakulteti
- Amaliy matematika va informatika fakulteti



UNIVERSITETDA TAHSIL OLAYOTGAN XORIJIY TALABALAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR:

- Tabiiy va gumanitar sohalarda bakalavr va magistr darajasini olish;
- Fan nomzodi (aspirantura) va fan doktori (doktorantura) unvonini olish uchun dissertasiya ishlarini tayyorlash;
- Ilmiy stajirovka o'tash;
- OTMda o'qish uchun tayyorlov dasturi orqali bilim olish.

O'QISH UCHUN TO'LOV

Xorijiy talabalarni o'qitish to'lov asosida amalga oshiriladi. Uning qiymati (narxi) birinchi bosqichga qabul qilingandan so'ng belgilanadi va butun o'qitish davrida o'zgartirilmaydi.

Talabalar to'lovnini birato'la har o'quv yilining boshida yoki bir yilda ikki marta amalga oshirishadi. To'lov milliy valyutada amalga oshiriladi.

To'lov qoidalarini buzish universitet talabalar safidan o'chirilishiga olib keladi.





14
FAKULTET

62
KAFEDRA

39 BAKALAVRIAT
DASTURLARI
40 MAGISTRATURA
DASTURLARI
47 PhD DASTURLARI

14 TADQIQOT
LABORATORIYASI

60 HAMKOR-
TASHKILOT

3 O'QUV-
DALA
MARKAZI

BIZ RAQAMLARDA

12000 TALABA,
JUMLADAN XORIJUY
TALABALAR HAM

1000 NAFAR PROFESSOR-
O'QITUVCHILAR
82 FAN DOKTORLARI
420 FAN NOMZODLARI

1 GERBARIY
1 BOTANIKA BOG'I
5 MUZEY

16 O'QUV KORPUSI
3 SPORT ZALI
5 ZAMONAVIY YOTOQXONA

O'QISHGA KIRISH UCHUN ZARURIY XUJJATLAR

1. Pasport va uning O'zbekiston xududidagi notarial idorada tasdiqlangan tarjimasi. Tarjimada ismi va familyasi vizaga mutanosib bo'lishi shart.
2. O'rta ma'lumot xaqidagi qonuniy xujjat va uning notarial idorada tasdiqlangan notarial tarjimasi. Tarjimada ismi va familiarsi vizaga mutanosib bo'lishi shart.
3. To'ldirilgan so'rovnomalar.
4. 6 ta 3x4 hajmdagi rasm.
5. O'qishga kiruvchilar sog'ligi xaqidagi tibbiy ma'lumot nomalar, shuningdek flyurografik tekshiruv natijalari
6. OIV-infeksiyasi yo'qligi xaqidagi sertifikat.
7. Emlanish (privivkalar) sertifikati.
8. Viza nusxasi





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI

Online Viza So'rovnomasi

Rусский English Français Español

Shaxsiy ma'lumotlar (faqt lotin xarflarida)

Familiyasi *

Avvalgi familiyasi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA KIRISH TAKLIFNOMASI

Agar siz O'zbekiston Respublikasi xududiga kirishingiz uchun viza talab qilinsa, bizning universitetimiz nomidan taklifnoma kerak. Viza 15 kun ichida O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi Konsullik bo'limidan beriladi.

Taklifnomani rasmiylashtirish uchun bizga quyidagi xujjatlar va ma'lumotlar zarur:



PASPORT NUSXASI



MA'LUMOTI HAQIDAGI HUJJAT NUSXASI



TO'LDIRILGAN SO'ROVNOMA (e-visa to Uzbekistan)

TAYYORLOV BO'LIMI



O'zbekistonning boshqa oliy o'quv yurtlarida kabi Samarqand davlat universitetida ham tahsil olish o'zbek, rus va ingлиз tillarida olib boriladi.

Shu sababli, ushbu tillarni bilmagan chet yellik fuqarolar tayyorlov bo'limida o'qishlari kerak va 10 oy mobaynida tinglovchilar rus tili, shuningdek maxsus fanlarni (matematika, fizika, chet tili va h.) o'rGANISHADI.

Imtixonlar muvaffaqiyatli topshirilgandan so'ng talabalar tanlagan mutaxassislik bo'yicha universitetning birinchi kursiga o'qishga kirish huquqini beruvchi sertifikat olishadi. Tayyorlov bo'limida darslar har yili 1 oktabrdan boshlab o'tkaziladi. Guruh 8-10 kishidan iborat.



Samarqand davlat universitetining tayyorlov bo'limi dasturida o'quv mashg'ulotlari zamonaviy o'qitish uslublariga asoslanadi, yangi o'quv qo'llanmalari va materiallar qo'llaniladi.



XORIJIY TALABALARGA ZAMONAVIY YOTOQXONADA JOY TAQDIM ETILADI



Xorijiy talabalarga yotoqxona bepul taqdim etiladi.

O'qish davrida Sizga talabalar shaharchasida joylashgan yotoqxonada o'rIN ajratiladi. Qulay va shinam xonalar 2-3 kishiga mo'ljallangan. Shuningdek Sizga yuvinish xonasi va oshxona ajratiladi.

Yotoqxona – bu ko'p millatli talabalar oilasi, u yerda yashash Sizga juda ko'p quvonch va yangi tanishuvlar olib keladi deb umid qilamiz, chunki aynan shu yerda butun dunyo bo'ylab ko'plab do'stlar topasiz. O'zbekistonlik talabalar bilan muloqot esa nafaqat o'zbek madaniyati bilan tanishishingizga, balki o'zbek tilini o'rganishingizga ham yordam beradi.

Bu ma'lumotlar Sizga foydali bo'ladi va Samarqand davlat universiteti talabasi bo'lisingizga ko'maklashadi degan umiddamiz! Siz o'zingizni qiziqtirgan savollar va masalalar bo'yicha har doim bizga murojaat qilishingiz mumkin!




Universitetimiz haqida batafsil ma'lumotlarni quyidagi manzillardan olishingiz mumkin:



www.samdu.uz

e-mail: irossu@samdu.uz

Yangiliklarni bizning
www.samdu.uz
saytimizda kuzating



Xalqaro aloqalar bo'limi
Tel: (+998 66) 239 10 79
Faks: (+998 66) 239 11 40
Email: irossu@samdu.uz